

SUN'IY INTELEKT: INSON UCHUN IMKONIYAT VA INTELEKTUAL
TURG'UNLIK XAVFI

Shamshiyeva Rozigul

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Xorijiy tillar va adabiyoti fakulteti, Nemis tili yo'nalishi, 2-bosqich talabasi, 761-24 guruh.

Annotatsiya

Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining zamonaviy jamiyatga transformatsiyasi, uning iqtisodiy samaradorligi va insoniyat tafakkuriga solayotgan yashirin xavflari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kiberxavfsizlik, raqamli tengsizlik va ta'limdagi "kognitiv dangasalik" muammolarini bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan strategik tavsiyalar va xalqaro tajribalar yoritilgan. Kalit so'zlar: Intellektual turg'unlik, kognitiv dangasalik, ikki tig'li pichoq, raqamli savodxonlik, inson ongi mahsuli, tanqidiy tahlil, raqamli tengsizlik, akademik halollik, gallyusinatsiya xavfi, strategik yondashuv.

Аннотация

В данной статье анализируется трансформация технологий искусственного интеллекта (ИИ) в современном обществе, его экономическая эффективность и скрытые угрозы для человеческого мышления. В исследовании освещены научно обоснованные стратегические рекомендации по преодолению проблем кибербезопасности, цифрового неравенства и «когнитивной лени» в образовании, а также международный опыт. Ключевые слова: Интеллектуальный застой, когнитивная лень, обоюдоострый меч, цифровая грамотность, продукт человеческого разума, критический анализ, цифровое неравенство, академическая честность, риск галлюцинаций, стратегический подход.

Abstract

This article analyzes the transformation of Artificial Intelligence (AI) technologies in modern society, its economic efficiency, and hidden threats to human cognition. The study highlights evidence-based strategic recommendations to overcome cyber security challenges, the digital divide, and "cognitive laziness" in education, drawing on international experiences. Keywords: Intellectual stagnation, cognitive laziness, double-edged sword, digital literacy, product of human intellect, critical analysis, digital divide, academic integrity, risk of hallucinations, strategic approach..

Kirish: Insoniyat tafakkurining cho'qqisi

Sun'iy intellekt — bu inson aql-zakovati va ijodiy tafakkurining eng yuksak mahsulidir. Bu texnologiya o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q, balki insoniyat ming yillar davomida to'plagan matematik, lingvistik va mantiqiy bilimlarning mashina tiliga ko'chirilgan ko'rinishidir. Bugungi kunda SI nafaqat texnologik qulaylik, balki 2030-yilga kelib jahon iqtisodiyotiga 15,7 trillion dollar foyda keltirishi prognoz qilinayotgan global iqtisodiy quoldir. Biroq, inson o'z aqli bilan yaratgan bu "aqli vosita" uning o'ziga qarshi ishlamasligi uchun mantiqiy muvozanat talab etiladi. SIn i ikki tig'li pichoqqa qiyoslash mumkin: u bilan dunyo sivilizatsiyasini yangi bosqichga olib chiqish yoki ehtiyotsizlik oqibatida intellektual turg'unlikka uchrash hech gap emas.

SI insoniyatga vaqtni tejash va murakkab muammolarni soniyalarda hal qilish imkonini yaratmoqda: Qishloq xo'jaligida: "Aqli dehqonchilik" (Smart Farming) tizimlari, dronlar va

sensorlar yordamida tuproq unumdorligini tahlil qilish hosildorlikni 20-30% ga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa global oziq-ovqat inqirozining oldini olishda inson ongi yaratgan eng samarali yechimdir. Axborot va qidiruv tizimlaridagi yutuqlari haqida so'z ketganda Google va YouTube kabi gigant

platformalar SI yordamida foydalanuvchining qiziqishlarini bashorat qilish (Predictive Analytics) darajasiga yetdi. Bu insonning axborot izlashga sarflaydigan vaqtini o'n barobarga qisqartirdi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida Zamonaviy talabalar uchun SI — bu universal mentor. U murakkab ilmiy gipotezalarni oddiy tilda tushuntirish, xorijiy tillarni (masalan, nemis tili grammatikasini) o'rgatishda tengsiz yordamchiga aylandi. Texnologiya qanchalik mukammal bo'lmasin, uning ortida inson ongi turishi shart. Aks holda, jamiyat "intellektual parazitizm" xavfiga duch keladi. Vestminster universiteti va boshqa nufuzli ta'lim muassasalari tadqiqotlariga ko'ra, talabalarning 60% dan ortig'i topshiriqlarni mustaqil tahlil qilmasdan, SIDan tayyor nusxa olishga o'rganmoqda. Bu yo'lning oxiri aslida ma'lum, ya'ni Kognitiv dangasalikni kelib chiqaradi. Inson miyasi mashq qilmasa, uning neyron bog'lamlari zaiflashadi. Tayyor yechimlarga tayanib qolish mantiqiy fikrlash zanjirini uzadi va insonni texnologiyaga qaram qilib qo'yadi. Yoshlar o'rtasida ommalashayotgan bu holat talabalarni izlanuvchanligini yo'qolishiga sabab va turtki bo'lib xizmat qilayapti. Gallyusinatsiya va xato faktlar Sini chetlab o'tayotgani yo'q. Ayniqsa bu bizning ona tilimiz o'zbek tilida ko'p uchramoqda. Ya'ni SIDa O'zbekiston davlati ta'lim dasturlaridagi 66% fanlar haqida ma'lumot yo'q va bu ba'zan shunchaki javob tariqasida taxminiy va unga yaqin bo'lgan ma'lumotlarni berish bilan kifoyalanmoqda. Vaholanki bu xato! Agar inson uni tanqidiy tekshirmasa, akademik va ilmiy xatolar ko'payib ketadi.

Ijobiy jihatlarni hisobga olgan holda raqamli tengsizlikni bartaraf etish uchun internet va yuqori texnologiya yetib bormagan chekka qishloq yoshlari va shahar yoshlari o'rtasidagi bilim olish imkoniyati farqi (Digital Divide) yanada chuqurlashishi mumkin. SI inson ma'lumotlari asosida o'qitilgani sababli, ma'lumotlar maxfiyligi (Data Privacy) masalasi birinchi o'ringa chiqadi. "Deepfake" texnologiyasi orqali yolg'on axborot tarqatish ijtimoiy xavf tug'diradi. O'zbekiston Respublikasining 2025-yilda hayotga tatbiq etilishi kutilayotgan "Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha odob-axloq qoidalari" bu texnologiyani insoniyat manfaati yo'lida qonuniy jilovlashda muhim huquqiy asos bo'ladi.

Xalqaro tajriba: Janubiy Koreya va Estoniya misolida

Dunyoning eng rivojlangan davlatlari SIDan inson aqlini almashtirish uchun emas, balki uni boyitish uchun foydalanmoqda. Janubiy Koreya maktablarida SI har bir o'quvchining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab, unga mos ravishda bilim beruvchi "aqli hamroh" vazifasini o'taydi. Bu esa insonning intellektual salohiyatini turg'unlikdan saqlab qoladi.

Strategik tavsiyalar: Muvozanatli rivojlanish

- "80/20" qoidasi: Tadqiqot va ijodiy ishning 80% qismi insonning mustaqil aqliy mehnati bo'lishi, faqat 20% qismi SI tomonidan tahrir qilinishi shart.
- Tanqidiy tahlil: Mashina bergan har bir javobni kamida ikkita akademik manba orqali tekshirish ko'nikmasini yoshlarda shakllantirish lozim.
- AI Savodxonligi: Universitetlarda SIDan shunchaki foydalanishni emas, balki uni boshqarishni o'rgatuvchi "Prompt engineering" darslarini ko'paytirish kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt — insoniyat tarixidagi eng ulkan ixtiro bo'lib, u bizning aql-zakovati cho'qqisidir. Uni mutloq rad etish ham, unga ko'r-ko'rona taslim bo'lish ham birdek xatodir. Zero, eng aqli texnologiya ham insoniy tuyg'ularni, tanqidiy mantiqni va ijodiy ilhomni almashtira olmaydi. Faqatgina o'zining mustaqil fikrlash qobiliyatini saqlab qolgan, SIni o'ziga qul emas, balki qudratli qurol qila oladigan avlodgina Uchinchi Renessansning haqiqiy bunyodkori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining raqamlashtirish va SI texnologiyalarini joriy etishga oid farmonlari.
2. Westminster University Academic Research on AI Integration, 2024.
3. International Journal of Digital Transformation and Ethics, Vol. 5, 2025.
4. Russell, S., & Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson, 2020.
5. Schwab, K. The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum, 2017.